

ERISTIK DISKURSNING STRUKTURAVIY HAMDA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimova Madina Saydulla qizi,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
G-mail: karimovamadina398@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola eristik diskursning struktur modeli va tipologik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Unda eristik diskursning makrostruktura va mikrostruktura sathlari, uning asosiy birliklari sifatida konfliktema va argumentema tushunchalarining mohiyati tahlil qilinadi. Maqolada eristik diskursning shaxsiy va institutsional shakllari, siyosiy, yuridik, ilmiy, maishiy hamda internet muloqoti doirasidagi ko'rinishlari tavsiflanadi. Bundan tashqari, Walton va Krabbe tomonidan ishlab chiqilgan dialog turlari nazariyasi hamda dialektik siljish konsepsiyasi asosida eristik diskursning dinamik tabiati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida eristik diskursni struktur va tipologik jihatdan tavsiflashning nazariy asoslari tizimlashtiriladi hamda uning kommunikativ xususiyatlarini aniqlash mezonlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: makrostruktura, mikrostruktura, argumentema, argumentatsiya, diskurs tipologiyasi, institutsional diskurs, shaxsiy diskurs, dialog turlari.

Аннотация. Настоящая статья посвящена исследованию структурной модели и типологических особенностей эристического дискурса. В ней анализируются макроструктурный и микроструктурный уровни эристического дискурса, а также раскрывается сущность понятий конфликтемы и аргументемы как его основных единиц. В статье характеризуются персональные и институциональные формы эристического дискурса, а также его проявления в политической, юридической, научной, бытовой и интернет-коммуникации. Кроме того, на основе теории типов диалога, разработанной Уолтоном и Краббе, а также концепции диалектического сдвига раскрывается динамическая природа эристического дискурса. В результате исследования систематизируются теоретические основы структурного и типологического описания эристического дискурса и предлагаются критерии определения его коммуникативных особенностей.

Ключевые слова: макроструктура, микроструктура, аргументема, аргументация, типология дискурса, институциональный дискурс, персональный дискурс, типы диалога.

Annotation. This article is devoted to the study of the structural model and typological characteristics of eristic discourse. It analyzes the macrostructural and microstructural levels of eristic discourse and examines the concepts of conflicteme and argumenteme as its fundamental units. The article describes personal and institutional forms of eristic discourse, as well as its manifestations in political, legal, academic, everyday, and online communication. In addition, the dynamic nature of eristic discourse is explained through the theory of dialogue types developed by Walton and Krabbe and the concept of dialectical shift. As a result, the study systematizes the theoretical foundations for the structural and typological description of eristic discourse and proposes criteria for identifying its communicative characteristics.

Keywords: macrostructure, microstructure, argumenteme, argumentation, discourse typology, institutional discourse, personal discourse, dialogue types.

Kirish. Eristik diskursning struktur modelida makrostruktura va mikrostruktura sathlarini farqlash ham muhimdir. T.van Deyk asoslab berganidek, har qanday diskurs bir vaqtning o'zida ham global (makrostruktura – umumiy mavzu va mazmun), ham lokal (mikrostruktura – ayrim jumlar va ular orasidagi bog'lanishlar) darajalarda tashkil topadi.[1.223] Eristik diskursga nisbatan bu shuni anglatadiki, uni ham yaxlit bahs sifatida

(makrosath), ham ayrim eristik nutqiy harakatlar – e'tiroz, rad etish, hujum, himoya sifatida (mikrosath) tahlil qilish mumkin.[2.160]

Makrosathda eristik diskurs yaxlit bahs sifatida o'zining umumiy mavzusi, asosiy nizoli masalasi va rivojlanish mantig'i bilan namoyon bo'ladi; u butun to'qnashuvning umumiy manzarasini ko'rsatadi. Mikrosathda esa eristik diskurs ayrim nutqiy harakatlar va ularning ketma-ketligidan tashkil topadi; bu daraja to'qnashuvning aniq til vositalarini va ularning bevosita ta'sirini ochib beradi. [3.390]

Adabiyotlar tahlili. Eristik diskursning nazariy asoslari diskurs tahlili, argumentatsiya nazariyasi va pragmalingsvistika doirasida o'rganilgan. K.F. Sedov konfliktli muloqot va nutqiy agressiya masalalarini tadqiq qilib, konflikt diskursining struktur xususiyatlarini yoritgan. S. Toulmin argumentatsiya modelini ishlab chiqib, dalilning asosiy tarkibiy qismlarini tavsiflagan. V.I. Karasik diskursni shaxsiy va institutsional turlarga ajratgan hamda diskurs tipologiyasining muhim mezonlarini belgilagan. D. Walton va E.C.W. Krabbe dialog turlari nazariyasini ishlab chiqib, eristik dialogning o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berganlar. O.S. Issers esa konfliktli kommunikatsiyada qo'llaniladigan strategiya va taktikalarni tadqiq etgan. Ushbu nazariy yondashuvlar eristik diskursning strukturaviy va tipologik xususiyatlarini tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda eristik diskursning strukturaviy va tipologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida diskursiv tahlil, tavsifiy-tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Diskursiv tahlil yordamida eristik diskursning makro va mikrostruktura sathlari, konfliktema va argumentema birliklari o'rganildi. Tavsifiy-tahliliy metod orqali eristik diskursning asosiy shakllari va kommunikativ xususiyatlari tavsiflandi. Qiyosiy metod asosida esa eristik diskursning shaxsiy va institutsional ko'rinishlari, shuningdek, uning siyosiy, yuridik, ilmiy va maishiy turlari o'zaro solishtirildi. Tadqiqotning nazariy asosini diskurs tahlili, argumentatsiya nazariyasi hamda dialog turlari konsepsiyasiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

Tahlillar va natijalar. Eristik diskursning struktur modelini yanada aniqlashtirish uchun konflikt diskursi nazariyasiga ham murojaat qilish maqsadga muvofiq ko'rinadi. K.Sedov nutqiy xulq-atvor va ziddiyatli muloqotini tahlil qilib, konfliktli muloqotning o'ziga xos strukturasi va undagi nutqiy tajovuz shakllarini ko'rsatib bergan. [4.178] Mazkur tadqiqotlarda eristik diskursning eng kichik birliklari sifatida "konfliktema" (konfliktni keltirib chiqaruvchi nutqiy harakat) va "argumentema" (dalil keltiruvchi nutqiy harakat) kabi tushunchalar ajratiladi. [5.320] Demak, konfliktema e'tiroz, ayblash, kinoya yoki haqorat shaklida namoyon bo'ladi. Argumentema esa – bu o'z pozitsiyasini asoslash yoki raqib dalilini rad etishga qaratilgan nutqiy harakatdir. Eristik diskursda bu ikki birlik o'zaro almashinib turadi va ularning nisbati diskursning xususiyatini belgilaydi: konfliktemalar ustunlik qilsa, diskurs tortishuvga yaqinlashadi; argumentemalar ko'proq bo'lsa, u oqilona bahsga moyil bo'ladi. Demak, mazkur birliklarning miqdori va nisbatini

sanash orqali eristik diskursning keskinlik darajasini hatto miqdoriy jihatdan ham baholash mumkin bo'ladi.

Eslatib o'tamiz, Tulmin har qanday dalil da'vo, ma'lumot, asoslovchi qoida va boshqa unsurlardan iborat ekanligini ko'rsatgan edi. [6.94] Eristik diskursda mana shu dalil strukturasi yashirin yoki zaif bo'g'inlar – ko'pincha asoslovchi qoidaning aytilmasligi yoki uning shubhaliligi to'qnashuvning manbai bo'lib xizmat qiladi; tahlillar uchun bu ham muhim, chunki har qanday dalilda oshkora aytilgan da'vo va ma'lumotdan tashqari, ko'pincha aytilmagan, ammo nazarda tutilgan asoslovchi qoida ham mavjud bo'ladi. Eristik diskursda aytilmagan qoida nizoning yashirin o'zagi bo'lib chiqadi: tomonlar ko'pincha bir-birining oshkora da'vosini emas, balki uning ortidagi asossiz yoki shubhali yashirin qoidani rad etadilar. Bundan tashqari, eristik diskursda dalil strukturasi zaif bo'g'inlari ataylab niqoblanadi yoki, aksincha, raqibning dalilidagi zaiflik atayin bo'rttiriladi. Eristik diskurs bir jinsli va o'zgarmas hodisa emas, balki kommunikativ sharoit, ishtirokchilar maqomi, institutsional omillar hamda pragmatik maqsadlarga qarab turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan murakkab diskursiv fenomen hisoblanadi. Uning yuzaga chiqish shakllari, strategiyalari va kommunikativ mexanizmlari qo'llanish sohasi hamda muloqot vaziyatiga qarab sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Shu sababli eristik diskursning mohiyati va funksional xususiyatlarini to'liq anglash uchun uni muayyan tasnif mezonlari asosida guruhlarga ajratish masala tahlilini yana ham oydinlashtiradi. Eristik diskursni tasniflashning eng muhim tamoyillaridan biri – uni shaxsiy (personal) va institutsional (maqomga yo'naltirilgan) turlarga ajratishdir. Mazkur tasnifni o'z ishlarida V.Karasik asoslab bergan. Olimning fikricha, shaxsiy diskursda muloqotchilar bir-biriga shaxs sifatida murojaat qiladilar, institutsional diskursda esa ular muayyan ijtimoiy institut vakili sifatida faollashadilar.[7.189] Eristik diskursga nisbatan bu shuni anglatadiki, kundalik maishiy keskin tortishuv dialogi – shaxsiy eristik diskurs, siyosiy bahs, sud munozarasi yoki ilmiy polemika esa institutsional eristik diskurs hisoblanadi.

Xususan, shaxsiy eristik diskursda ishtirokchilar erkin, ya'ni qat'iy qoidalar bilan cheklanmagan holda harakat qiladilar; ularning nutqi hissiy, ko'pincha qo'pol va shaxsiy bo'ladi. Institutsional eristik diskursda esa, aksincha, muloqot muayyan rasmiy qoidalar va me'yorlar doirasida kechadi: masalan, sud munozarasida tomonlar belgilangan tartibga, parlament bahsida esa reglamentga rioya etishlari shart; institutsional eristik diskursda ochiq tajovuz ko'pincha yashirin, niqoblangan shaklga o'tadi – bu esa manipulyativ usullarning ko'payishiga olib keladi. Aytish mumkinki, shaxsiy va institutsional eristik diskurs nafaqat shakli, balki qo'llaniladigan nutqiy strategiyalar tizimi bilan ham bir-biridan farq qiladi.

V.Karasik diskurs tipologiyasiga soha bo'yicha tasniflash tamoyilini ham taklif etadi va bu universal tabiatga ega ekanligi bilan ahamiyatli sanaladi.[8.5] Mazkur tamoyilga ko'ra, eristik diskursni amal qilish sohasiga qarab quyidagi asosiy turlarga ajratish

mumkin: siyosiy eristik diskurs (siyosiy bahslar, deputatlar tortishuvi), yuridik eristik diskurs (sud munozaralari), ilmiy eristik diskurs (ilmiy polemika, dissertatsiya himoyasidagi bahslar), maishiy eristik diskurs (kundalik tortishuvlar) hamda ommaviy axborot va internet diskursidagi eristik to'qnashuvlar. Har bir soha eristik diskursga o'ziga xos qoidalar, cheklovlar va nutqiy vositalar tizimini belgilab beradi. Masalan, sud munozarasida tomonlar qat'iy protsessual qoidalarga bo'ysunishi, dalillarini rasmiy tarzda taqdim etishi shart; bu yerda ochiq haqorat yoki tajovuz man etiladi. Ilmiy polemikada esa dalillarning mantiqiy asosliliigi va manbalarga tayanishi talab qilinadi. Maishiy keskin tortishuv dialogida esa hech qanday rasmiy cheklov bo'lmaydi va eristik diskurs o'zining eng erkin, ko'pincha eng keskin shaklida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur soha farqlari milliy madaniyat bilan ham chambarchas bog'liq: turli madaniyatlarda bir xil sohada eristik diskursning maqbul darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Eristik diskursni tipologiyalashning yana bir muhim asosi – Walton taklif etgan dialog turlari nazariyasidir. Walton va Krabbe muloqotning oltita asosiy turini ajratib, eristik dialogni alohida tur sifatida belgilagan edilar.[9.65] Bundan tashqari, Walton dialektik siljish tushunchasini kiritib, bir dialog turining boshqasiga o'tishi mumkinligini ko'rsatdi.[10.100] Mazkur g'oya eristik diskursni dinamik tipologiyalash imkonini beradi: bunda diskurs turi statik emas, balki muloqot jarayonida o'zgaruvchan hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Masalan, ishontiruvchi dialog asta-sekin eristik keskin tortishuv dialogiga aylanishi – tipik dialektik ko'chishdir. Bu tushuncha eristik diskursni qotib qolgan, o'zgarmas tur sifatida emas, balki jonli, harakatdagi jarayon sifatida ko'rishga undaydi. Amaliyotda eristik diskurs kamdan-kam hollarda “sof” holatda uchraydi; ko'pincha u boshqa dialog turlari bilan aralashgan, ulardan unga va undan ularga o'tib turuvchi murakkab tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ilmiy munozara (ishontiruvchi dialog) shaxsiy adovat tufayli eristik keskin tortishuv dialogiga aylanishi, so'ngra yana oqilona muhokamaga qaytishi mumkin. Binobarin, eristik diskursning tipologik modeli statik tasnif bilan birga dinamik o'lchamlarni ham qamrab olishi shart. Eristik diskursni intensivlik (keskinlik) darajasi bo'yicha ham tipologiyalash mumkin. Masalan, eng quyi keskinlikdagi oqilona diskussiya va munozaradan boshlab, o'rta darajadagi polemika orqali eng yuqori keskinlikdagi keskin tortishuv dialogi va nutqiy tajovuzgacha bo'lgan bir necha bosqichni ajratish mumkin. Yondashuv eristik diskursning kommunikativ strategiya va taktikalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni O.Issers tasnifi bilan mos keladi,[11.54] ya'ni eristik diskursning keskinlik darajasi qo'llaniladigan strategiyalarning xususiyatiga qarab belgilanadi. Keskinlik darajasi bo'yicha tipologiyani shartli ravishda uzluksiz shkala sifatida tasavvur qilish maqsadga muvofiq. Mazkur shkalaning bir uchida oqilona, hamkorlikka moyil bahs – diskussiya turadi; unda qarama-qarshilik mavjud bo'lsa-da, ishtirokchilar bir-birini hurmat qiladilar va haqiqatni izlashga intiladilar. Shkalaning o'rtasida polemika joylashadi; unda kurash ruhi kuchayadi, biroq u hali oqilona dalil

doirasida qoladi. Shkalaning ikkinchi uchida esa keskin tortishuv dialogi va nutqiy tajovuz turadi; bunda mantiqiy dalil deyarli yo‘qoladi va uning o‘rnini hissiy bosim, shaxsiy hujum hamda yuzga tahdid egallaydi. Aytish kerakki, real eristik diskursda muloqot ko‘pincha shkalaning bir nuqtasidan ikkinchisiga siljib turadi – bu yana Walton ta’riflagan dialektik siljish hodisasi bilan bog‘liqdir. Bularga qo‘shimcha tarzda, eristik diskursni bayon shakli bo‘yicha – og‘zaki va yozma turlarga, ishtirokchilar soni bo‘yicha dialogik va polilogik turlarga ajratish ham mumkin. Zamonaviy raqamli muloqot sharoitida esa eristik diskursning yangi, aralash shakllari – masalan, internet-sharhlardagi yoki ijtimoiy tarmoq munozaralaridagi eristik to‘qnashuvlar yuzaga keldi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari eristik diskursning murakkab va ko‘p qatlamli kommunikativ hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Uning makro va mikrostruktura sathlari diskursning yaxlit mazmuniy rivojlanishi hamda alohida nutqiy harakatlar orqali shakllanishini belgilaydi. Konfliktema va argumentema kabi birliklar eristik diskursning asosiy struktural elementlari bo‘lib, uning keskinlik darajasi va kommunikativ yo‘nalishini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Eristik diskurs shaxsiy va institutsional ko‘rinishlarda, shuningdek, turli sohaviy (siyosiy, yuridik, ilmiy, maishiy va internet) kontekstlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Walton va Krabbe tomonidan ishlab chiqilgan dialog turlari hamda dialektik siljish konsepsiyasi eristik diskursning dinamik tabiatini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, eristik diskursni struktur va tipologik jihatdan tahlil qilish uning kommunikativ mohiyatini chuqurroq anglash va tizimli tasniflash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dijk T.A. van, Kintsch W. Strategies of Discourse Comprehension. – New York: Academic Press, 1983. – P. 189–223.
2. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С. 138–160.
3. vanDijkT.A. DiscourseandContext: ASociocognitiveApproach. –Cambridge: CambridgeUniversityPress, 2008. – 267 p.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.
4. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 156–178.
5. Седов К.Ф. Агрессия и манипуляция в повседневной коммуникации // Юрислингвистика. – 2007. – № 8. – С. 76–87.; Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – 320 с.
6. Toulmin S. The Uses of Argument. – Cambridge: Cambridge University Press, 1958. – P. 94–145.
7. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 189–240.
8. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. – Волгоград: Перемена, 2000. – С. 5–20.
9. Walton D., Krabbe E.C.W. Commitment in Dialogue: Basic Concepts of Interpersonal Reasoning. – Albany: State University of New York Press, 1995. – P. 65–85.
10. Walton D. The New Dialectic: Conversational Contexts of Argument. – Toronto: University of Toronto Press, 1998. – P. 30–34, 100–112.
11. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – 5-е изд. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – С. 54–69.